



MASAOFAVIY TA'LIMDA LOYIXAGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM VA ARALASH TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

¹Islikov Said Xalilovich

Guliston davlat universiteti

²Агафонов Александр Алексеевич

Kazan federal universiteti (Rossiya)

³Ungarov Diyor Rustam o'g'li

Guliston davlat universiteti

ARTICLE INFO

Received: 04th June 2023

Accepted: 12th June 2023

Online: 13th June 2023

KEY WORDS

Masofaviy ta'limni, ta'lim texnologiyalari, loyihaga yo'naltirilgan ta'lim, loyiha metodi.

ABSTRACT

Bugungi kunda masofaviy ta'limda turli ta'lim texnologiyalari va metodlaridan keng foydalanib kelinmoqda. Asosiy maqsad ta'lim samaradorligiga erishish va ta'lim oluvchilarning yuqori bilim va kompetentsiyalarini rivojlantirishdan iborat. Loyihaga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarning amaliy faoliyat ko'rsatishlari va bilimlarini to'g'ridan to'g'ri tadbiq qilishlaridan iborat. Turli aralash topshiriqlar ularning bilimlarini sinash va ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

Masofaviy ta'lim modellari. Masofaviy ta'lim (MT) - bu o'qituvchi va ta'lim oluvchilar bir biri bilan masofa yoki vaqt orqali ajratilgan holda, axborot kommunikatsiya texnologiyalardan fodalangan holda tashkil qilinadigan ta'lim turi. Loyixaga yo'naltirilgan ta'limdan bugungi kunda dunyoning ko'plab olimlari tomonidan keng va samaraliy foydalanilib kelmoqda. Ushbu texnologiya 19-asrning 2-yarmida AQShda vujudga kelib, uning nazariy asoslarini Jon Dyui qarashlari tashkil qiladi. Tadqiqotlarimiz davomida ko'plab metodlarni taxlil qilish natijasida masofaviy ta'limni tashkil qilish va o'qitilish jarayonida ulardan foydalanish taxlil qilindi. Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni tashkil qilish turli ta'lim texnologiyalari va metodlari asosida o'qitilib kelinmoqda. Dunyoning ko'plab davlatlari ta'lim tizimida xususan oliy ta'lim tizimida ham masofaviy ta'limni tashkil qilish shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanib kelinmoqda. Olib borilgan tadqiqotlarimiz davomida dunyoning ko'plab oliy ta'lim tizimida bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni o'rganib chiqdik.

Masofaviy ta'limni tashkil qilishni malumotlar bazasi fani negizida qaraydigan bo'lsak bu borada ham ko'plab olimlar ish olib borishgan. Talabalar axborot tizimlarini loyihalash masalalarini real amaliyotga yo'naltirilgan yani muayyan korxonaning haqiqiy ma'lumotlaridan foydalanish va ish jarayoni uchun zaruriy masalalarni xal qilish bilan shug'ullanishadi. Yakuniy malaka ishlarini tayyorlashda talabalarning kamida 50 foizi ma'lumotlar bazasini tashkil etuvchi aniq korxonalar uchun axborot tizimlarini ishlab chiqish bilan bog'liq mavzularni tanlashlari butun o'quv jarayonida aniq traektoriya asosida bilimlarni egallashadi.



Turli ta'lim texnologiyalarini taxlil qilish shuni ko'rsatadiki ma'lumotlar bazasini o'qitish jarayonida loyihaga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining samarasi halqaro tajribalarda yuqori. Bizning tadqiqot ishlarimizda ham ushbu ta'lim texnologiyasidan foydalanish maqbul deb topdik.

Masofaviy ta'limda "Ma'lumotlar bazasi" fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulot darslarida amaliy faoliyatga qaratilgan loyixa metodi yoramida tashkil qilish va turli aralash topshiriqlardan foydalanishga aloxida e'tibor qaratish katta ahamiyatga ega. Shuning uchun, amaliy mashg'ulot darslarida ham video darslar, elektron darslik va elektron qo'llanmalar kabi elektron didaktik vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Aralash turdagi topshiriqlar harsafar turli topshiriqlarga tayyor turish, ijodiy fikrlash va turli vaziyatlarga tayyor bo'lish kabi qobiliyatlarni shakillantiradi.

Ispring dasturida tayyorlangan aralash topshiriqlarning avzalliklari

1. Bir topshiriqlar to'plamda turli topshiriqlardan ixtiyoriy tartibda foydalanish.
2. Tayyorlangan topshiriqlarda turli matnli, video, audio va grafik ma'lumotlar asosida tayyorlash imkoniyati mavjudligi.
3. Matematik formulalar va masalalarni joylashtirish imkoniyati borligi.
4. Talabalarning mantiqiy fikrlashi qobiliyatini turli topshiriqlarni bajarishi orqali rivojlantirishi.
5. Talabalarning topshiriqlarga ijodiy yondashishini o'stirishi.
6. Dastur interfeysining qulayligi.
7. Ommaviyligi va har bir foydalanuvchi foydalana olishi.

Va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

Topshiriqlarimizning birinchi qismida berilgan savolga ha yoki yo'q javoblarining birini tanlagan holda javob beriladi. Bu bilan savol bo'yicha talaba o'zining yagona yondashuvini ko'rsatadi. Ikkinchi topshirig'imizda talaba uch varyatli test topshirig'ini bajaradi. Bunda test savoli murakkablik darajasi o'rtacha bo'lgan savoldan foydalandik. Uchinchi bosqichda talaba bir nechta variantli savol bilan ishlaydi bunda javob ulardan bittasi yoki bir nmechtasi bo'lishi ham mumkin yoki barchasi bu talabaning mulohaza qilishiga sabab bo'ladi.

Keyingi bosqichda talaba turli mulohazalarning o'zaro moslarini birlashtirish bilan topshiriqni bajaradi. Bunday xilma hil topshiriqlarni bajarish talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirib gina qolmasdan ularning intellektual qobiliyatlarishi shakillantirishga ham mizmat qiladi.

Harsafar turli topshiriqlar bilan to'qnash kelishi ularning vaziyatga to'g'ri baho berishi, murakkab vaziyatlardan chiqishlari uchun to'g'ri yol topa bilishlarini shakillantiradi. Bu qobiliyat hamma qatori ma'lumotlar bazalari bo'yicha mutaxasislarga qo'yiladigan asosiy talablardan biridir.

Masofaviy ta'limda "Ma'lumotlar bazasi" fanidan amaliy mashg'ulot darslarini tashkil etishda foydalaniladigan ishlanmasidan namuna keltiramiz. Ma'lumotlar omborini yaratish mavzusida bilimlarni baholash uchun topshiriqlar to'plamidan namunalar keltiramiz:

1-jadval.

Test savollari		
1	Ma'lumotlarni relatsion modeli qanday model?	A) Ma'lumotlarni jadval ko'rinishida ifodalash.



		B) Ma'lumotlarni to'rli ifodalash. S) Ma'lumotlarni tartiblash.
2	Ma'lumotlar omborini boshqarish tizimi keltirilgan javobni ko'rsating?	A) MS Access, MySQL B) PhotoShop, Paint C) Google Chrom
Mantiqiy savollar		
3	Agar ma'lumot to'plangan, saralangan va tizimli tartiblangan va jadvalga joylashtirilgan bo'lsa ma'lumotlar omborining qanday modelini qo'llash maqsadga muvofiq.	
Muammoli savol		
4	Ma'lumotlar omboriga uzluksiz malumotlarni kiritib borishda katta hajmdagi axborot to'planadi. Bunda hotira va tezlik muammosi vujudga keladi. Ma'lumotlar bilan ishlashni qanday tashkil qilish bu muammolarni oldini olish imkonini beradi.	

Turli aralash shakldagi topshiriqlardan foydalanish nafaqat bilimni sinash mastaxkamlash, balki muammoliy vaziyatlar va muammoliy savollar bilan ishlash, ularga echim topish shu orqaliy kasbiy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Masofaviy ta'limda "Ma'lumotlar bazasi" fanlari bo'yicha laboratoriya mashg'ulot darslarida ham amaliy faoliyatga qaratilgan loyixa metodi yordamida tashkil qilishga alohida e'tibor qaratish katta ahamiyatga ega. Shuning uchun, amaliy mashg'ulot darslarida ham turli aralash topshiriqlar, video darslar, elektron darslik va elektron qo'llanmalar kabi elektron didaktik vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish va tahlil qilish natijasida oliy ta'lim tizimida masofaviy ta'limni tashkil qilish jarayonida elektron didaktik vositalar va texnologiyalar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli ishlab chiqildi. Bularni amalyotda qo'llash talabalarning bilim olishlari va mustaqil ishlashlarini rag'batlantiradi. Yuqoridagilar asosida masofaviy ta'limni tashkil qilish jarayonida loyihaga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni tavsiya qilamiz.

References:

1. O'Ng'Arov, D., & Eraliyeva, S. (2022). SUN'IY INTELLEKTNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. Science and innovation, 1(A8), 119-122.
2. Негматуллоев, З., Нуриев, М., & Унгаров, Д. (2023). ПЕРСПЕКТИВЫ ЦИФРОВЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5 Part 2), 238-241.
3. Qilichev, S., & Muxamadov, A. (2023). SUN'IY INTELLEKT ALGORITMIGA ASOSLANGAN SPORTCHILARNING SALOMATLIK MONITORINGINI BOSHQARISH TIZIMI. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5 Part 2), 194-199.
4. Qilichev, S., & Taniberdiyev, A. (2023). TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA VIRTUAL TEXNOLOGIYALAR O 'RNI VA AHAMIYATI. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5 Part 2), 158-161.



5. Ungarov, D., Adilov, A., & Muxamadov, A. (2023). NEYRON TARMOQLARIGA ASOSLANGAN SPORT MASHG'ULOTLARI UCHUN SALOMATLIKNI ANIQLASH ALGORITMI. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(6), 57-59.
6. Islikov, S., Rahmanov, V., Abdumo'minova, S., & Kuchimov, S. (2023). MA'RUZA MASHG'ULOTLARINI O 'ZLASHTIRISHDA INNOVATION YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5), 175-178.
7. Khalilovich, I. S. (2022). General Objectives of Teaching Students Using Modern Methods in Pedagogy. The Peerian Journal, 13, 60-63.
8. Halilovich, I. S. (2022). ZAMONAVIY TA'LIMDA MEDIYA TA'LIMNING AHAMIYATI.
9. Allayorov, A. I., Islikov, S. H., & Turdikulova, B. T. (2021). XXI CENTURY-THE CENTURY OF INTELLECTUAL YOUTH. Экономика и социум, (2-1 (81)), 56-62.
10. Islikov, S., Rahmanov, V., Axmedova, I., & Abdumo'minova, S. (2023). UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANLARINI O 'QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5), 168-171.
11. Eshbayevich, T. D. (2022). ЎҚУВ ЖАРАЁНИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ИМКОНИАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. Science and innovation, 1(Special Issue 2), 554-560.
12. Toshtemirov, D. E. (2019). USING CLOUD TECHNOLOGY TO PROVIDE INFORMATION RESOURCES IN THE PROCESS OF DISTANCE LEARNING. Bulletin of Gulistan State University, 2020(1), 21-26.
13. Saidov, J. D., Qudratov, A. N., Islikov, S. X., Normatova, M. N., & Monasipova, R. F. (2023). Problems of Competency Approach in Developing Students' Creativity Qualities for.
14. Jasur Doniyor, O. G., Saidov, L., Allayorov, S. P., OMBORINI, S. X. I. M. L., & BAHOLASH, Y. B. Y. K. K. MEZONLARI//Scientific progress. 2021. № 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ma-lumotlar-omborini-yaratish-bo'yicha-kasbiy-kompetentligini-baholash-mezonlari> (дата обращения: 02.06. 2022).
15. Гаимназаров, О., Агафонов, А., & Саидов, Ж. (2023). СОВРЕМЕННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(6), 94-99. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejti/article/view/16592>
16. Mirzoxid Mansur O'g'li Rustamov (2021). NEFT VA GAZ ZAXIRALARI VA RESURSLARINI BAHOLASH. Scientific progress, 2 (6), 325-329.
17. Mirsultanovich, F. M., Kizi, S. N. A., & Kizi, B. M. U. (2019). Teaching foreign languages with the use of Internet sources. Проблемы науки, (4 (40)), 61-62.
18. Фозилов, М. М. (2017). Непрерывность и последовательность овладения профессиональными навыками студентами вузов. Вестник науки и образования, 2(5 (29)), 78-80.